

---

Farg'onalik paxtakorlar paxta rejasini bajardi

**Farg'onalik paxtakorlar mamlakatimizda birinchi bo'lib, joriy yilgi paxta topshirish shartnomaviy rejani bajardi. Fermer xo'jaliklari tomonidan mo'l hosil yetishtirilib, 238 ming 600 tonnadan ortiq paxta xirmoni bunyod etildi, uning aksariyat qismi yuqori navlarga sotildi.**

Ha, bugun qadimiy dehqonchilik an'analariga ega bo'lgan Farg'ona ahli, uning g'ayrat-shijoati, mirishkorlik fazilatlarini yanada yaqqol namoyon bo'ldi. Ular ulkan yutuqni qo'lga kiritdi. Yaxshi xabarning qanoti bor deyishadi. Viloyat paxtakorlarining erishgan zafari bugun barchani behad mamnun etmoqda.

Mamlakatimizda barcha sohalar qatori qishloq xo'jaligini ham modernizatsiya qilish borasida eng muhim vazifalar aniq belgilab olingan bo'lib, ular izchil amalga oshirib borilayotgani o'zining amaliy samaralarini ko'rsata boshladi. Xususan, Prezidentimiz tashabbusi bilan paxtachilikda innovatsion g'oya-klaster tizimi joriy etildi. Viloyatda ham birinchilardan bo'lib paxta yetishtirishda mazkur tizim o'tgan yilda birgina Rishton tumanida qo'llangan bo'lsa, joriy yilda viloyatning 9 ta tumanida paxta-to'qimachilik klasterlari tashkil etildi.

Mirishkor dehqonlar va mutaxassislarining ta'kidlashicha, paxtachilikda bunday yuqori hosildorlikka erishishning o'zi bo'lmaydi. Bunda bilim, malaka va tajriba kerak. Viloyatda mineral o'g'itlardan noto'g'ri foydalanish natijasida tuproq tarkibida nitrat me'yorida oshib ketgan edi. Natijada paxta hosildorligi pasayib, g'o'zaning pishish muddati kechika boshladi. Shuning uchun o'tgan yil kuzdayoq yerga mahalliy o'g'it-kompos solishga jiddiy e'tibor qaratildi. Lekin buning o'zi kam edi. Sho'r yuvish qoidalariga jiddiy e'tibor qaratildi. Amalga oshirilgan bu ishlar samarasi o'laroq yerlar meliorativ holati yaxshilandi.

- Xalqimizda "Yerni boqsang, yer ham seni boqadi", degan maqol bejiz aytilmagan, - deydi O'zbekiston Qahramoni, Oltiariq tumanidagi "Nurli obod" fermer xo'jaligi rahbari Lolaxon Murotova. - Sohada katta natijaga erishish uchun birinchi navbatda rizq-ro'zimiz manbai bo'lgan yerni boqishimiz, tuproq unumdorligini oshirishimiz zarur. Viloyat hokimi boshchiligida biz ana shu muhim tadbirlarga alohida e'tibor qaratdik. Shuningdek, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash borasidagi ishlar ham o'zining samarasini bera boshladi. G'alla va paxtadan yuqori hosildorlikka erishilmoqda. Yana muhim jihatlardan biri tuproq-iqlim sharoitiga mos navlarning tanlanganidir. Xo'jaligimizda joriy yilda 126 gektar maydonda g'o'zaning "Namangan-77" navi ekilib parvarishlandi. Hosildorlikni bu yil 50 sentnerga yetkazmoqdamiz.

Darhaqiqat, g'o'zaning hudud sharoitiga mos navlarini to'g'ri tanlab joylashtirish, obitobida ekish mo'l hosilga qo'yiladigan talablardan biridir. Joriy yilda 2 ming 149 ta fermer xo'jaliklari 82 ming 80 gektar maydonga chigit ekdi. G'o'zani navlar bo'yicha joylashtirishda avvalo hududlarning tuproq-iqlim sharoiti, suv ta'minoti hamda sohaning yetakchi olim va mutaxassislari, fermer xo'jaliklari rahbarlari, shuningdek, klaster korxonalarini takliflari inobatga olindi. G'o'zaning "S-8290", "Namangan-77", "Sulton", "S-6524" navlari ekilib, agrotexnik tadbirlarga muhim e'tibor qaratildi. Dunyo paxtachiligida tola sifati va hosildorligi yuqori, ertapishar, kasallik va zararkunanda hasharotlarga chidamli, tabiatning turli noqulayliklariga bardoshli g'o'za navlarini yaratish eng muhim vazifalardan sanaladi. E'tiborli jihati, bu yil viloyatda 6 ming 980 gektar maydonda yangi navlar sinovdan o'tkazildi. Xususan, viloyat hokimi Shuhrat G'aniyev boshchiligidagi guruh tomonidan yaratilgan yangi nav iqlimga mosligi, hosildorligi va tolasining sifati bilan dehqonlarga ma'qul bo'layotir.

---

G'ozga parvarishi ham muhim jarayon bo'lib, bu ishlar ilg'or tajribalar asosida tizimli tashkil etildi. Klaster korxonalari tomonidan mineral o'g'itlar zaxirasini to'liq yaratilganligi hamda fermer xo'jaliklariga vaqtida uzluksiz yetkazib berilishi o'z samarasini berdi. Innovatsion usul sug'orish tizimida ham sinovdan o'tkazildi. 331 gektar maydonda tomchilatib, tuproq sharoiti suvni ko'p sarf qilinadigan maydonlarda 176 komplekt egiluvchan quvurlar orqali sug'orish joriy etildi.

Viloyatda g'ozga parvarishida uning rivojini tezlashtirish va hosildorlikni 3-5 sentnerga oshirish maqsadida biologik faol moddalar-biostimulyatorlar qo'llandi. Joriy yilda g'ozga defoliatsiyasining o'z muddatida va sifatli o'tkazilganligi natijasida yetishtirilgan hosilning yog'ingarchilik kunlarga qolmay yig'ishtirib olish imkoniyati yaratildi.

Ma'lumki, dehqonchilikda texnika ham katta o'rin egallaydi. Klaster korxonalari tomonidan moddiy-texnik bazani mustahkamlash masalasi asosiy vazifa sifatida belgilandi. Joriy yilning o'zida umumiy qiymati 50 milliard so'mdan ortiq bo'lgan 40 dona haydov traktori, 100 dona chopiq traktori, 80 dona transport traktori, 120 dona chigit ekish seyalkasi, 90 dona kultivatorlar, 300 dona omoch, 85 dona purkagichlar, 35 dona mineral o'g'it sepish moslamalari olib kelinib, agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirilishiga erishildi.

Albatta amalga oshirilgan mazkur ishlar natijasida dalalarda mo'l hosil yetishtirildi. Paxtani qisqa muddatlarda sifatli qilib terib olish, terimga fermer xo'jaligi a'zolarini va ish bilan band bo'lmagan uyushmagan aholini ixtiyoriy jalb etish bo'yicha barcha zaruriy choralar ko'rildi.

- Paxta yig'im-terimini tizimli tashkil etish bo'yicha 1 ming 370 ta terim otryadlari shakllantirilib, ularga 239 ming nafar terimchilarni ixtiyoriy ravishda biriktirib chiqildi, - deydi viloyat hokimi o'rinbosari Halimjon Umarov. - Paxta xomashyosini yig'ib-terib olishda viloyatdagi 9 ta klaster korxonalari va 4 ta paxta tozalash korxonalari tarkibidagi 44 ta paxta qabul qilish maskanlari, ulardagi 917 ta g'aram maydonlari, 332 ta paxtani uzatish mexanizmlari, 336 ta transportyorlar, 340 ta laboratoriya jihozlari belgilangan standartlar asosida ishlashi ta'minlandi.



Natijalar esa quvonarli. 15 ish kunida viloyatning Yozyovon, Qo'shtepa, Rishton tumanlari davlatga paxta sotish shartnomaviy rejasini respublikada birinchi bo'lib bajardi. Shuningdek, Toshloq, Furqat, Uchko'prik, Buvayda tumanlari ham paxta xirmoniga munosib hissa qo'shdi. Bugun boshqa tumanlar ham astoydil harakat qilmoqda.

"Bahodir Log'on tekstil" mas'uliyati cheklangan jamiyati joriy yilda Yozyovon tumanida klaster usulida paxta yetishtirib, hosildorlik 30 sentnerni tashkil etmoqda.

-Tailand bilan hamkorlikda 50 million dollardan ortiq investitsiya hisobiga yangi qo'shma korxonamiz yaqinda ish boshlaydi, - deydi "Bahodir Log'on tekstil" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari Ziyohiddin Yormatov. - U yerda zamonaviy texnologiyalar asosida paxta tolasi qayta ishlanib, tayyor mahsulot ishlab chiqariladi. Bu yil ilk bor klaster asosida paxta parvarishlab, bugunga qadar 15 ming tonnadan ortiq hosil xirmonini yaratdik. Terimchilarga 15 milliard so'mdan ortiq terim pullari berildi. Fermer xo'jaliklari ham bugun manfaat ko'ra boshladi. Biz ularga paxta parvarishi uchun zarur bo'ladigan barcha narsani o'z vaqtida yetkazib berdik.

Yozyovon tumanidagi "Bahrombek", "Liberal invest", "Xumo", "Odiljon G'ofurov Sattorovich", "Xayrullo", Qo'shtepa tumanidagi "Vahobjon Abdullajon o'g'li", "Turdaliyev Madamin", "Rustam Ravshanov yeri", "Soyibjon Abdujabbor zamini", "Rovvot zamin fayzi", "Ibrohimjon Ma'rufjon fayzi", "Donishmand", Rishton tumanidagi "Agronom Aliyev", "Ahrorjon", "Hasanboy Hamdam", "Madamin Maxsim", "Shuhrat fayz zamini" kabi ko'plab fermer xo'jaliklari birinchi terimda 40-45 sentner hosil olib, shartnomaviy rejani bajardi. Terim puli bank muassasalari tomonidan dalaning o'zida tarqatilgani, ~~itg'or terimchilar rag'ballantirilib borilgani kabi omillar elimizning rizq-nasibasini~~ o'z vaqtida, sifatli yig'ishtirib olinishini ta'minladi.

Bu yil Furqat tumanida "Bulut textile" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan

---

klaster tizimi joriy etilib, paxta yetishtirishga ixtisoslashgan 156 ta fermer xo'jaliklari bilan shartnoma imzolandi. Shu tariqa tumandagi fermer xo'jaliklari tomonidan 5 ming 425 gektar yerda istiqbolli paxta navlari parvarishlanib, 16 ming 600 tonna sifatli sanoat xom ashyosi yig'ishtirib olindi.



-Paxtachilikda klaster usuli yutuqlarimizning muhim omili bo'lmoqda, - deydi tumandagi "Qushchi" fermer xo'jaligi rahbari Hayotjon Aliyev. - Bu yil xo'jaligimiz a'zolari tomonidan 33,1 gektar yerda "Sulton" nomli paxta navi yetishtirildi. Birinchi terimdayoq reja bajarildi. Bugungacha rejadagi 97 tonna o'rniga 110 tonnadan ortiq paxta terib olindi. Dalalarimiz hali ham oppoq chamanzor, hosildorlikni 50 sentnerga yetkazishni rejalashtirganmiz.

Viloyat bo'yicha 2019-yilda paxta xomashyosi yetishtirish va terib olish uchun 877 milliard 225 million so'mdan ortiq mablag' sarflandi. Yetishtirilgan paxtadan fermer xo'jaliklari kesimida olingan aniq hisob-kitoblarga asosan 340 milliard so'm foyda olinishi kutilmoqda.

Bu yil Farg'ona viloyatida yetishtirilgan paxta tolasining sifati tezda tilga tushdi. Xorijiy davlatlarning kompaniyalari, to'qimachilik korxonalarining rahbarlari va mutaxassislari paxta maydonlarida bo'lib, tolaning ko'rsatgichlari bilan tanishmoqda. Xususan, "Indorama Kokand Textile" O'zbekiston - Singapur qo'shma korxonasining muassisi-"Indorama Group" kompaniyasi direktorlar kengashi raisi Pratoj Loxiya Farg'onada bo'lib o'tgan uchrashuvda mazkur yuqori navli paxtani sotib olish masalalarini ham muhokama qildi.

Farg'ona azaldan mirishkor paxtakorlar, usta bobodehqonlar yurti. Bugungi kunda ham bu ezgu an'ananing munosib vorislari bo'lgan farg'onalik fermer va paxtakorlar joriy yilgi yutuqlar sarhisobidan mamnun bo'lib, ertangi kun istiqboli umidida ulkan orzu-maqсадlar bilan yangi marralar sari intilmoqda.

Dalalarda qiyg'os ochilgan paxta ko'zni qamashtiradi. Hosil hali mo'l. Farg'onaliklar mavsum yakuniga qadar hosildorlikni 34-35 sentnerga yetkazishni rejalashtirgan.



**M.SULAYMONOV, M.QODIROV (surat), O'za**

2019-10-12 17:05:40